Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

DETEKTIV ASARDA OBRAZ YARATISH TAMOYILLARI VA AYOL OBRAZINING BADIIY-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Gulnoza Vasliddin qizi Shamsiddinova*
shamsiddinovagulnoza93@gmail.com
✉ shamsiddinovagulnoza93@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda detektiv asarda obraz yaratishning janriy-poetik tamoyillari hamda ayol obrazining badiiy-funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Detektiv asarda obrazlar tizimi jinoyat, sir, tergov va yechim kabi syujet unsurlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, personajlarning xarakteri, psixologik holati va xatti-harakatlari voqealar rivojini ta'minlovchi muhim vosita vazifasini bajaradi. Ayniqsa, ayol obrazining detektiv syujetdagi funksiyasi turli tarixiy-adabiy bosqichlarda o'zgarib, passiv obyektlikdan faol badiiy subyektlikka tomon rivojlangan. Tadqiqotda ayol personajining syujet, kompozitsiya, konflikt va obrazlar tizimidagi o'rni ingliz detektiv adabiyoti materiallari asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar

detektiv adabiyot, obraz, personaj, ayol obrazi, poetika, syujet, kompozitsiya, konflikt, psixologizm, gender, badiiy funksiya, detektiv janr, xarakter, obrazlar tizimi.

DOI: 10.5281/zenodo.22053888

Kirish.

Detektiv adabiyot o'zining qat'iy janriy qonuniyatlari, sirli voqealar tizimi va mantiqiy yechimga asoslangan syujeti bilan boshqa adabiy janrlardan ajralib turadi. Mazkur janrda badiiy obraz yaratish jarayoni ham bevosita detektiv syujetning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Personajning tashqi qiyofasi, nutqi, xatti-harakati, psixologik holati va boshqa qahramonlar bilan munosabati ko'pincha jinoyat sirini ochishga xizmat qiluvchi badiiy detallar orqali shakllantiriladi. Detektiv asarda obraz faqat estetik vazifa bajarmaydi. U syujetning harakatlanishi, konfliktning yuzaga kelishi, jinoyat motivining ochilishi va yakuniy yechimga erishishda muhim funksional ahamiyatga ega. Shu jihatdan personajlar tizimining markazida detektiv qahramon, jinoyatchi, jabrlanuvchi, guvoh, gumondor va yordamchi personajlar bilan bir qatorda ayol obrazlari ham alohida o'rin egallaydi.

Detektiv asarda obraz yaratishning muhim tamoyillaridan biri funksionallik hisoblanadi. Personajning har bir xatti-harakati, nutqi yoki muayyan vaziyatdagi qarori syujet rivojiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli detektiv asarlarda ortiqcha personaj yoki voqeaviy jihatdan ahamiyatsiz epizodlarning mavjudligi janrning mantiqiy tuzilishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Detektiv asarda personaj haqida beriladigan ma'lumot o'quvchining taxminini boshqaradi. Muallif ayrim personajlarning xarakter xususiyatlarini ataylab yashirishi yoki voqealar rivoji davomida asta-sekin ochib borishi mumkin. Natijada obraz yaratish jarayoni detektiv syujetning intriga va sir mexanizmi bilan uzviy bog'lanadi. Detektiv asar faqat tashqi harakatlar ketma-ketligidan iborat emas. Jinoyatning sababi, personajning qarori va uning muayyan vaziyatdagi xatti-harakatlarini anglash uchun ichki motivlarni ochish ham zarur. Shu bois personajning ruhiy holati, qo'rquvi, shubhasi, manfaatlari va axloqiy tanlovi obrazning individual qiyofasini belgilovchi omillardan hisoblanadi.

Ayol obrazi detektiv adabiyotning shakllanishidan boshlab turli funksional maqomlarda tasvirlangan. An'anaviy detektiv syujetlarda ayol ko'pincha jabrlanuvchi, guvoh, gumondor yoki jinoyat sabablaridan birini

tashkil etuvchi personaj sifatida namoyon bo‘lgan. Bunday holatda uning asosiy funksiyasi detektiv qahramonning tergov faoliyatini harakatga keltirish yoki jinoyat sirining shakllanishiga xizmat qilishdan iborat bo‘lgan. Biroq ingliz detektiv adabiyotining taraqqiyoti davomida ayol obrazining badiiy imkoniyatlari kengayib bordi. Ayol personajlari voqealarning faol ishtirokchisiga, mustaqil fikrlovchi va kuzatuvchi qahramonga, ayrim hollarda esa jinoyat sirini anglashga qodir intellektual subyektga aylana boshladi. Shu tariqa ayol obrazining funksional maqomida sifat o‘zgarishi yuz berdi.

Artur Konan Doylijodida Irene Adler obrazi mazkur jarayonning e’tiborga molik namunalaridan biridir. “A Scandal in Bohemia” hikoyasida Irene Adler Sherlock Holmes uchun oddiy tergov obyekti emas, balki uning intellektual imkoniyatlariga qarshi tura oladigan mustaqil xarakter sifatida tasvirlanadi. Uning vaziyatni tez anglash, strategik qaror qabul qilish va o‘z manfaatlarini himoya qilish qobiliyati ayol obrazining an’anaviy passiv modelidan farqlanadi.

Agata Kristi ijodida esa ayol personajlarining badiiy-funksional imkoniyatlari yanada kengayadi. Uning detektiv romanlarida ayol qahramonlar ijtimoiy muhitni kuzatish, inson xarakterini anglash, yashirin munosabatlarni aniqlash va voqealar rivojiga ta’sir ko‘rsatish kabi funksiyalarni bajaradi. Ayniqsa, Miss Marple obrazi ayolning hayotiy tajribasi, kuzatuvchanligi va psixologik sezgirligini detektiv faoliyatning muhim vositasiga aylantiradi.

Ayol obrazining badiiy-funksional xususiyatlarini bir necha jihatdan tasniflash mumkin. Birinchidan, *syujet funksiyasi:* ayol personaji voqeani boshlab berishi, jinoyat haqida muhim ma’lumotni yetkazishi yoki tergov yo‘nalishini o‘zgartirishi mumkin.

Ikkinchidan, *kompozitsion funksiya:* uning paydo bo‘lishi asarning muayyan qismlarini bog‘lovchi yoki konfliktni kuchaytiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Uchinchidan, *psixologik funksiya:* ayol personaji orqali insoniy qo‘rquv, shubha, iztirob, muhabbat, xiyonat va axloqiy tanlov kabi holatlar ochib beriladi. To‘rtinchidan, ayol obrazi *gender munosabatlarini ifodalash funksiyasiga* ega. Personajning oila, jamiyat, kasb va erkak qahramonlar bilan munosabati orqali muayyan davrga xos ijtimoiy qarashlar aks ettiriladi. Shu nuqtayi nazardan detektiv asardagi ayol obrazini faqat syujetga xizmat qiluvchi personaj sifatida emas, balki davrning gender tasavvurlarini ifodalovchi badiiy vosita sifatida ham baholash mumkin. Detektiv asarda ayol obrazining o‘ziga xos jihatlaridan biri uning sir va haqiqat o‘rtasidagi munosabatni ifodalash imkoniyatidir. Ayol personaji ba’zan sirning egasi, ba’zan uning kaliti, ayrim hollarda esa sirni yashiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada ayol obrazi detektiv janrning asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lgan “sir”ning poetik ifodasida muhim vositaga aylanadi.

Shuningdek, ayol personajining nutqi va xatti-harakatlari ham obraz individualligini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Muallif dialog, ichki monolog, portret, psixologik detal va predmet tasviri orqali personajning xarakterini ochadi. Detektiv janrda bunday detallar ko‘pincha ikki tomonlama vazifa bajaradi: bir tomondan, xarakter yaratadi, ikkinchi tomondan, tergov uchun muhim dalil vazifasini bajaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, detektiv asarda obraz yaratish janrning syujet va kompozitsion xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq. Personajlar tizimi jinoyat, sir, tergov va yechim jarayonlarini badiiy jihatdan birlashtiradi.

Ayol obrazining funksional evolyutsiyasini shartli ravishda quyidagi bosqichlarda ko‘rish mumkin:

passiv obraz jinoyat qurboni yoki tergov obyekti;

funksional obraz voqealar rivojini harakatga keltiruvchi personaj;

faol obraz tergov jarayonida ishtirok etuvchi va mustaqil qaror qabul qiluvchi qahramon;

intellektual subyekt jinoyat sirini anglash yoki yechishda faol ishtirok etuvchi mustaqil badiiy shaxs.

Bu evolyutsiya detektiv adabiyotdagi ayol obrazining badiiy imkoniyatlari kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa

Detektiv asarda obraz yaratish tamoyillari janrning syujet, kompozitsiya, konflikt va sirni ochish mexanizmi bilan chambarchas bog‘liq. Personajning xarakteri nafaqat estetik, balki funksional vazifani ham bajaradi. Shu sababli detektiv asardagi obrazlar tizimini o‘rganish janr poetikasining muhim jihatlarini aniqlash

imkonini beradi. Ayol obrazi esa detektiv adabiyotda alohida badiiy-funksional ahamiyatga ega. Uning tarixiy taraqqiyoti passiv va yordamchi personajdan faol, mustaqil va intellektual subyektga tomon rivojlangan. Bu o‘zgarish detektiv janrning ichki poetik imkoniyatlari bilan bir qatorda, jamiyatdagi gender munosabatlari va ayolning ijtimoiy maqomi haqidagi tasavvurlarning o‘zgarishi bilan ham bog‘liq. Shunday qilib, ingliz detektiv romanlarida ayol obrazini tadqiq etish obraz poetikasi, janriy qonuniyatlar, gender yondashuvi va adabiy an’ananing o‘zaro munosabatini kompleks o‘rganish imkonini beradi. Ayol personajining syujet, kompozitsiya, psixologik va gender funksiyalarini aniqlash esa detektiv adabiyot poetikasining o‘ziga xos xususiyatlarini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Beauvoir S. de. The Second Sex. – New York: Vintage Books, 2010.
2. Christie A. The Mysterious Affair at Styles. – London: John Lane, 1920.
3. Christie A. The Murder of Roger Ackroyd. – London: William Collins, 1926.
4. Doayle A. C. The Adventures of Sherlock Holmes. – London: George Newnes, 1892.
5. Cawelti J. G. Adventure, Mystery, and Romance. – Chicago: University of Chicago Press, 1976.
6. Plain G. Twentieth-Century Crime Fiction: Gender, Sexuality and the Body. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2001.
7. Rzepka C. J. Detective Fiction. – Cambridge: Polity Press, 2005.
8. Scaggs J. Crime Fiction. – London: Routledge, 2005.
9. Todorov T. The Poetics of Prose. – Ithaca: Cornell University Press, 1977.
10. Butler J. Undoing Gender. – New York: Routledge, 2004.